

Baxt sandiqda, kalitib B"osmonda. Naql

Birinchi Maktub

"Salom, Bekmurod!

Javobi talab qilinmaydigan ushbu maktublar ta'bingizni tirriq qilib, kayfiyatingizni buzsa-da, o'tmish hayotingizdagi sizga hanuz sir bo'lib qolayotgan ba'zi bir sahnalarni oydinroq ko'rishingiz uchun pardalarni ochib bersa ajab emas.

Odatda kishi hadeganda o'tmish xayollariga berilavermaydi. Bunga vaqti yetishmaydi. Kundalik ikir-chikirlar, ro'zg'or tashvishlari, kelasi kun rejalari, umuman, tirikchilik insonni har doim soqqadek u yoqdan bu yoqqa dumalatib yuradi. Bu gaplar ayniqsa jismonan sog'lom kishilarga ko'proq tegishli. Siz singari nogironlar esa bundan qisman mustasno.

Bilaman, ikkinchi qavatdagi ikki xonali ko'rimsiz uyingizda hamon yolg'iz yashaysiz. Qamoqdan chiqib, uyingizga qadam bosganingizda uning aftoda holga kelib qolganligini ko'rgan edingiz. Devorlar o'yilib, gulqog'ozlar ko'chib yotar, poltaxtalarning bo'yog'i o'chgan, yorilgan, eshik-derazalar eskirib, sinib, yaroqsiz holga kelib qolgan, oshiq-moshiqlari bo'shagan, yog'ingarchilik paytlarida ta'mirlanmagan tomdan o'tgan chakki xonalar shiftini zaxlatib tepada qizg'ish-sariq tusdagi katta-kichik dog'lar hosil qilgan edi. Siz "u yoqda"; ekanligingizda uyga ikki marta o'g'ri tushib qo'lga ilinadigan narsalar o'marib ketilgach, qolgan buyum-jihozlarni ukangiz qishloqdan kelib uyiga olib ketgan, xonalarga esa ijarachi talabalar qo'yilgandi. Bir yumshoqko'ngil qo'shningiz nazorati ostida talabalar bu yerda o'z bilganlaricha yashadilar, davru-davron surdilar hamda xonalarni shu ahvolga keltirdilar. Siz kelib bu yerda qayta joylashdingiz. Eshik-derazalarni naridan-beri tuzatgan bo'ldingiz-u, uyni to'liq ta'mirlashga hafsala qilmadingiz. Onangiz, ukangiz qishloqqa ko'chib borishni taklif qilishganlarida unamadingiz. Shundan so'ng ukangiz buyumlarigizni olib kelib o'zingizga tashlab ketdi.

Nogironlik nafaqasini olib yolg'iz yashaydigan odamning kuni qursin.

Aytishlaricha, qamoqxonada maxbuslar bir-birlari bilan janjallashib qolishsa va o'zaro kimnidir jazolamoqchi bo'lishsa har xil usullar qo'llashar ekan. Shulardan biri, oyoq-qo'lini qo'shib bog'lab, dumbasini qattiq yerga to'g'rilagan holda yuqoridan tashlab yuborishadi. Jabrlanuvchi yerga zarb bilan tushadi va ichi "to'kilib"; ketadi. Bu jazo qo'llanilgan odam garchi o'sha chog'da har qancha lat yemagandek sog'lom ko'rinsa-da, aslida, ko'pga bormasmish. To'rt-besh yilga yetmasmish. Yanayam anig'ini bilmadim-u, sizga ham shu jazo qo'llanilgan deb eshitdim. Ilohi, bu xabar yolg'on bo'lsin.

So'nggi paytlarda hovliga tushib u yoq-bu yoqlarga aylanib kelish ham sizga malol kelmoqda. Sog'lig'ingiz oydan-oyga, haftadan-haftaga yomonlashib borayotir. Ikkinchi qavat zinasidan tushib chiqishning o'zi bir azob. Kechqurunlari to qorong'u tushguncha hovlidagi skameykada dam olib o'tirishni xush ko'rasiz. Bu paytlarda havo salqin, to'yimli bo'ladi. O'zingizni yaxshiroq his qilasiz. Ba'zan qo'ni-qo'shnilaridan biri kelib yoningizga kelib o'tiradi. Sizga hamsuhbat bo'lgisi keladi. Biroq siz o'zi tabiatan odamoviroq odam, hayotingiz buzilib, sog'lig'ingizga ham keskin putur yetgach yana ham o'zingizni boshqalardan olib qochadigan bo'lib qolgansiz. Suhbatdoshni yoqtirmaysiz. Boshqalar ham buni sezishadi albatta, ko'pam sizni bezovta qilgilari kelmaydi.

Kechqurunlari hovlida atrofni kuzatish ayniqsa yolg'iz kishiga zavq beradi. Bu hol menga ham naqadar tanish. Yon-veringda bolalar qiyqirishib o'ynab yurishadi. Kattalar ishdan qaytadilar. Hovli, ko'chalar gavjumlashadi. Qorong'u tusha boshlagach har kim o'z bolasini chaqirib uy-uylariga ravona bo'ladilar.

Ularning gap-so'zlariga, bebosh bolasini tergashlariga zimdan quloq tutasan, harakatlarini kuzatib o'tirasan. Bilasan, endi ular iliq uylariga kirib kechki tamaddi tadorigini ko'radilar. Oila jamuljam bo'ladi - ota, ona, bolalar. Yuz-qo'llarini yuvib, artinib dasturxon atrofida to'planishadi. Ovqat suziladi. Gurunglashib o'tirishadi. Vaqtning o'tgani sezilmaydi.

Siz ham uyingizga yo'nalasiz. Tutqichdan ushlab asta-sekin zinadan yuqoriga chiqa boshlaysiz... Har safar yuqorilaganingiz sari o'sha ayanchli kun manzaralari ko'z oldingizda qayta namoyon bo'layotgandek tuyuladi. Go'yo uyingiz eshigi lang ochiladi-yu, ichkaridan xo'rlanib, qattiq itarib yuborilgan Iroda otilib chiqadi. O'zini o'nlab ololmay tik zinapoyadan pastga qulay boshlaydi. Ko'zlarida dahshat va alam ifodalari qotib qolgan... Kimsasiz, sovuq uyga kirib borishingizni o'ylab yuragingiz orqaga tortib ketadi. Xohlaysizmi, xohlamaysizmi sizning uyingiz, vataningiz shu. Omonat eshikni g'ijirlatib ochganicha ichkariga kirib kelasiz. Dasturxon yozib tamaddi qilgan bo'lasiz.

Ovqat masalasida sizda muammo yo'q. Bu yerga kelganingizdan beri mana, besh oydirki biror kun och qolgan emassiz. Ming shukrlar bo'lsinkin, bu dunyoda savobtalab odamlar ham bisyor. Gohida kun oralatib, gohi ketma-ket har kuni eshigingizdan bosh suqib bir kosa ovqat uzatishadi. Xuddi qishloqdagidek. "Dom";dagilar ma'raka qilishganida yo bayramlarda ham alohida sizning nasibangiz yetib keladi. Nonga yoki ko'nglingiz tusagan boshqa biror taomga muhtojlik sezganda pulini bersangiz istalgan qo'shningiz do'kondan olib kelib beradi. Beminnat xizmatini ayamaydi.

Tez orada ko'payishib qolgan kitoblar, gazeta va jurnallarni ham o'shalar olib kelib berishgan. Bular sizning eng yaqin suhbatdoshlaringizdir. Kitoblardan birining orasida siz ehtiyotlab asrayotgan bir surat ham bor. Qizingiz va o'g'lingizning birgalikda tushgan surati.

Qaynotangiz xonadonida voyaga yetayotgan bolalaB-ringizni o'sha mash'um kundan beri hali ko'rganingiz yo'q. Ko'rsatishmagan. Irodaning urug'lari bunga yo'l qo'yishmaydi. Hozirda ular ulg'ayib qolishgan. Endi sizni ular bilan uchrashtirishgan taqdirdayam yuzlariga qanday qarashni, ne deyshini bilolmay mulzam bo'lib turishingizni tasavvur qilib afsuslar chekaman.

Qarindoshlaringiz, do'stlaringiz, tanish-bilishlaringiz navbat-navbati bilan kelib sizni ko'rib ketishadi. Ayrimlari holingizdan xabar olgani haliyam kelib-ketib turishadi. Yaqinlaringiz o'tmishingizning yeng qora kuni shohidi bo'lgan boshpanangizni almashtirishni maslahat berishdi. Siz unamadingiz. Sababi, shu kulbangiz hayotingizning sizga qadrli bo'lgan baxtiyor kunlarining ham shohidi edi. Yana bir sababi, siz uyingizni almashtirganingiz bilan hayotingizni yangitdan boshlay olmasligingizni, bunga imkoniyatingiz ham yo'qligi, o'tmish xotiralari nafaqat xayolingizni egallab olgani, balki ham suvratingiz, ham siyratingizda-da to'liq aks etib turganini tushunib yetganingiz edi chamamda.

O'tkazgan baxtiyor kunlaringiz ahyon-ahyon tushlaringizga ham kirib tursa ajab emas. Suluvgina turmush o'rtog'ingiz, shirindan-shirin ikki farzandingiz, jamiyatda o'zingizga yarasha mavqeingiz, to'ppa-to'g'ri izdan ketayotgan turmush yo'lingiz bor edi. Xatarli burilishlarga chalg'imaslik, oilangizni faqat halol luqma bilan boqish doimiy e'tiqodingiz bo'lgan. Ayolingizga ham qayta-qayta shuni uqtirardingiz. Sabr-bardoshli, irodali bo'lishga undardingiz. Zamon o'zgargach sizga o'xshagan ko'pgina oliy ma'lumotlilar oladigan maoshlariga qanoat qilmay ishlarini tashlab ketdilar. O'zlarini bozorlarga, tadbirkorlikka urdilar. Siz bu ishni qilmadingiz. Qanoatli bo'ldingiz, arqonni uzun tashladingiz, kelajakka umid bog'ladingiz. Biroq...

Mening kimligimni bilolmay hayron bo'layotgandirsiz. Bunga bosh qotirib o'tirmang. Men.. Yaratganning sizdan ancha-muncha uzoq bir bandasiman. Siz to'g'ringizdagi tafsilotlarni esa sizga yaqinroq bir tanishingiz orqali bilaman. UZR, men uni sizga oshkor qilmayman.

Sizga sabr-toqat tilayman.  
Salom bilan..."

Ikkinchi Maktub

"Bekmurod!

Xastalik ofatdir. Buni men ham o'z boshimdan kechirdim. Odatda bemor bilan muloqot qilinganda unga taskin beriladi, sihat, shifo tilanadi. Albatta, men ham sizga sog'lik-salomatlikni ravo ko'raman. Koshkiydi, shu ko'rganlaringiz tush bo'lsa-yu, bir tong cho'chib uyg'onsangiz-da...

Maktubimdan ko'nglingizni ko'taradigan gaplar, jumlar topolmayotganligingizdan iztirobdaman. Nima qilay, ko'rgulik ekan, xatlarimni jo'natmasam bo'lmasdi. Bu men uchun ham, siz uchun ham juda muhim deb o'yladim.

Sizdan yana o'tmishga, o'sha mash'um kun xotiralariga qaytishni iltimos qilardim...

Ishxonada sizga sim qoqishdi. Telefon orqali eshitilgan gaplardan hayratga tushdingiz: "Bekmurod, eshityapsizmi? Ayolingizning sizga qanchalik vafodorligini uyingizga opkelingan arzon-garov jihozlardan so'rang"; Shu gaplarni aytgan ayol o'zini tanitmadi. Siz bo'shshib joyingizdan jilolmay qoldingiz. Xonangizda uzoq o'tirib mulohaza qildingiz: "Jihozlar, deyildimi? Qaysi jihozlar? .."; Biroq birma-bir eslay boshladingiz. Avval divanni, keyinchalik ikkita kresloni sizsiz aynan xotiningizning o'zi sotib olib kelgan edi. Karnizlar, xontaxta, yozuv stoli va stulni ham Iroda sotib olgan. Sizni hol-joningizga qo'ymay shu jihozlarni olishga ko'ndirgan. Maoshdan qisib, qarindoshlardan ozroq qarz ko'tarib niyatiga yetgan. "Do'kondor yaxshi kishi ekan, narxini arzon tushirib berdi"; derdi har safar. Ha, aytganday, shu jihozlarning barisi bitta do'kondan olingan edi shekilli...

Ishdan erta qaytdingiz, biroq uyga kelmay shahar ko'chalarida kechgacha sanqib yurdingiz. Yo'lingizda uchragan mebel do'konlariga kirib jihozlarning narx-navosi bilan qiziqdingiz. Narxlar "osmonda"; edi. Xotiningiz xarid qilgan anavi matohlarning bahosi haqiqatan arzon edi. To'g'ri, narx-navo tez-tez o'zgarib turardi, biroq uyingizdagi narsalar olinganiga uncha-muncha vaqt o'tgan bo'lsa-da, baribir orada bunchalik katta farq bo'lmasligi kerak-ku.

Ehtirosni jilovlab aql bilan ish tutish lozimligini bilardingiz. Nohaqlik qurboni bo'lib qolish hech gap emas. Bu dunyoda senga hasad qiladiganlar, tinch turmushingni ko'rolmaydiganlar oz emas. Isbotsiz, dalilsiz bir gapga ishonish qiyin.

Xayolingizga kelgan bir fikrdan biroz dadillashB-dingiz. Borib yaqin tanishingizdan pul qarz oldingiz.

Qorong'u tushganda uyga kirib keldingiz.

- Kech qaytibsizmi? - deb so'radi Iroda.

- Ushlanib qoldim, - dedingiz sovuqqina.

Kayfiyatingiz yomonligini, Irodani ko'rarga ko'zingiz chidamayotganini sezdirmaslikka harakat qildingiz. Yuvinib, artingach jimgina ovqatlana boshladingiz. "Nahotki shu gap rost bo'lsa"; deya yana gumon ichida qoldingiz. Og'zingizdagi luqmani zo'r-bazo'r yutdingiz. Ishtahangiz bo'g'ildi. Birinchida o'qiydigan qizingiz hali dars qilib o'tirar, o'g'lingiz uxlab qolgan edi.

Dasturxonadagi taomni yemay qo'yganingizni ko'rib xotiningiz hayron bo'ldi:

- Ovqatingizni yemaysizmi? - deb so'radi.

- Qornim to'q, - dedingiz qisqa qilib, keyin yostiqaqqa yonboshladingiz.

Kayfiyatingiz yo'qligini allaqachon sezgan xotiningiz buni charchaganlikka yo'ydi. Ortiqcha gaplar gapirib sizni bezovta qilgisi kelmadi. Siz esa chalqancha yotganicha ko'zlaringizni yumib o'y o'ylab ketdingiz. Telefon orqali eshitgan gap hamon qulog'ingizdan nari ketmasdi. Keyin ko'zlaringizni xiyol ochib xonadagi jihozlarga nigoh tashladingiz. Manavi odmigina xontaxta, yozuv stoli, karnizlar, narigi xonada turgan divan hamda ikki kreslo sizdan nimalarnidir yashirayotgandek, xotiningizning sizga nisbatan xiyonatidan so'z ochishga shaylanayotgandek tuyuldi.

Ha, Iroda shu jihozlarning barisini bitta do'konB-dan olayotganini aytgan edi. Qaysi do'kon ekanligi bilan siz qizimabsiz.

"Do'kondor yaxshi kishi ekan";, desa "yaxshi kishi";ni negadir yoshi ulug' bir odam deb tasavvur qilibsiz. Nahotki Iroda o'sha do'kondor bilan don olishib yurgan bo'lsa...

Siz yana ko'zlaringizni yumdingiz.

- Vannaxonada suv yana chiqmay qoldi, - dedi Iroda bir mahal. - Hovlidayam yo'q. Ko'chaning narigi tomonidan tashiyapmiz.

- Nima bo'пти suvga?

- Bilmasam. Hamma o'sha yoqqa boryapti. Hali-beri chiqmaydi deyishyapti. Kattaroq ikkita paqir olmasak bo'lmaydi.

Shunda siz tuzgan rejangiz haqida o'ylay boshlaB-dingiz. Mana, bahona ham topilib qoldi. Shuni amalga oshirsangiz ba'zi bir narsalar ravshanlasharmidi...

- Mayli, - dedingiz, - pul beray, paqir olaqol, Keyin, haligi, qandil deytuvdingmi, o'shaniyam olaqol.

- Nima, oylik oldingizmi?

- Yo'q, mukofot chiqibdi.

- Qandilni qo'yaturaylik, undan boshqayam...

- Ol degan payti olavermaysanmi, osmondan tushgandek pul bo'lsa... Qolgani oylikdan.

Xotiningiz gapni ko'paytirib o'tirmadi. Odatingizni bilardi. Qandil olish ham bir orzuga aylanib qolishini istamasdi...

Bekmurod! Sudda bergan ko'rsatmalarining asosida yozilgan ushbu maktubda zikr etilgan voqealar haqiqatga qanchalik uzoq-yaqinligi albatta o'zingizgagina ayon, kechinmalarining haqidagi ayrim taxminiy mulohaB-zalarim ham nisbiydir, ehtimol. Buning uchun uzr.

Sizga sabr-toqat tilab, salom bilan..."

Uchinchi Maktub

"Siz o'sha kecha uxlayolmadingiz. Xayolingiz ming ko'chalarga kirib chiqdi. Mijja qoqmay tong ottirdingiz. Ertalab turib ishga ketdingiz. Ammo ishga bormay bozor yonidagi gavjum bekatda avtobusdan tushdingiz. Bu sizning kecha tunda o'ylab chiqqan rejangiz ijrosining avvali edi. Aynan shu joydan xotiningizning orqasidan kuzatishni mo'ljallagandingiz. Uyingiz yonidan kuzatsa bo'lmasdi, chunki Irodaning bozor qilgani uydan qachon chiqishini bilmasdingiz. Poylab o'tirganingizni ko'rib qolishsa tanish-bilishlar ajablanishlari, savolga tutishlari mumkin. Bilardingiz, Iroda faqat avtobusga minadi, siz ham aynan shu avtobusga minolmasdingiz, sizni ko'rib qoladi. Hozir tushgan mana bu gavjum bekatda esa sizni hech kim tanimaydi. Iroda ham avtobusda shu yerga keladi. Avvalosi u shu bekatda tushadi, bozor ichidagi yoki atrofidagi mebel do'konlaridan biriga boradi. Agar bu yerda tushmasa taksi minib avtobus ortidan kuzatsa bo'ladi.

Uyingiz tomondan keladigan avtobuslar, birin-ketin bekatda to'xtar, yo'lovchilar tushib chiqishardi. Siz esa yo'lak yoqasidagi daraxt panasidan turib ularni diqqat bilan sinchiklab kuzatardingiz.

Mana, nihoyat, navbatdagi kelib to'xtagan avtobus ichida Irodani ko'rdingiz. U ham shu bekatda tushishga taraddudlanib eshik tomon surilib kelardi. Avtobusdan tushdi-da shoh ko'chani kesib o'tib bozor darvozasi tomon yo'naldi. Siz uni ko'zdan qochirib qo'ymaslikka tirishib orqasidan ergashdingiz.

Iroda bozorga kirib aylanib yurdi. Ikkita chelak sotib oldi. Qator rastalar tomonga o'tib yana mayda-chuyda allanimalar xarid qildi. So'ngra ortiga qaytib bozordan tashqariga chiqdi va chapga burilgach keng yo'lak bo'ylab tez-tez yurib ketdi. Siz masofa saqlagan holda uning ortidan ko'z uzmay borardingiz. Iroda yo'l chetida tiqis joylashgan do'konlarning birortasiga kirmay bozordan ancha olislab ketdi. Muyulishdan chapga burildi. Siz ham qadamingizni jadallatdingiz. Muyulishga yetib burilib qaraganingizda uzun, kamqatnov yo'lakda Irodani yo'qotib qo'ydingiz. Atrofqa qarab shundoqqina yo'l yoqasida mebellar do'koni borligini ko'rdingiz. Irodaning shu do'konga kirgani aniq. Do'konning darrov ko'zga tashlanmaydigan ovloqroq, kamqatnovroq joyda joylashganligi ko'nglingizga yana bir g'ulg'ula soldi.

Nima qilishni bilolmay qoldingiz. Shu do'konga siz ilgari kelmagan, kirmagan edingiz. Iroda uydagi "arzon"; jihozlarni aynan shu do'kondan olganmikan yo boshqasidanmi, hali buni ham bilmasdingiz. Panaroqdan xotiningizning qaytib chiqishini kutib turdingiz. Qaytib chiqsa, u ketgach, do'konga kirmoqchi, do'kondorni tanib olmoqchi edingiz. Shunga qarab ish tutishni mo'ljallagandingiz.

Lekin Iroda hadeganda ko'rinavermadi. Do'konga keyin kirgan bir-ikki xaridorlar ham qaytib chiqib ketishdi. Shunda siz ko'nglingizga kelgan o'ta shubhali taxmindan birdaniga cho'chib tushdingiz. Tuzib turgan rejalarangiz bir zumda yodingizdan ko'tarildi. O'zingizni boshqa idora qilolmay do'kon eshigi tomon yurdingiz.

Kirib borganingizda ichkarida bir sotuvchidan bo'lak hech kim yo'q edi.

- Keling, aka, - deya mulozamat qildi sotuvchi.

Siz sotuvga qo'yilgan jihozlarga birrov ko'z yugurtirib chiqdingiz. Iroda bu yerga kirmabdi, deb o'yladingiz. Qaytib chiqmoqchi bo'lib burilganingizda eshik oldidagi bir-biriga mingashtirib qo'yilgan ikkita chelakka ko'zingiz tushdi-yu, to'xtab qoldingiz. Axir bular Irodaniki-ku.

Shu payt ichkaridagi xonalarning biridan shovqin eshitilgandek bo'ldi, so'ng qattiq-qattiq qadam tovushlari eshitildi. Siz qayrilib qarab boshini eggan kuyi kuylagi yoqalarini naridan-beri tuzatgancha ichkari xonadan shitob bilan chiqib kelayotgan Irodani ko'rdingiz.

Iroda qarshisida odam turganini ilg'ab boshini ko'tardi va sizga ko'zi tushdi-yu, turgan joyida tosh qotdi. Keyin qo'llarini yoqasidan olib kaftlari bilan yuzini bekitdi. Uning ketidan o'rta bo'yli, qoracha, to'ladan kelgan bir yigit chiqdi.

- Keling, aka, - dedi u sizni tanimay. - Xizmat aka, nima olasiz?

Shunda Iroda jahl bilan kaftlarini yuzidan oldi, sizning yuzingizga tik qaradi-da:

- Bekmurod aka, ketdik bu yerdan! - dedi shiddatli ohangda, u sizni ham kutib o'tirmasdan chelaklarini qo'lga ilgan tashqariga intilganda siz uning qo'lidan tutib qolib to'xtatdingiz.

- Kim bu! - deya o'shqirdingiz xotiningizga do'kondorni ko'rsatib.

- Yuring, ketdik bu yerdan! - deya yalindi Iroda. ВЪ"Keyin aytib beraman, o'zim tushuntiraman.

- Kimsan, yaramas! - deb baqirdingiz do'kondorga tashlanishdan bazo'r o'zingizni tiyib.

- Iye, aka, nega baqirasiz? - dedi do'kondor bamayB-lixotir. - Biz hech narsa qilmadik, aka. Do'konda shovqin ko'tarishga haqqingiz yo'q.

- Ichkarida bu bilan nima qilayotuvding, iflos! - deb dag'dag'a qildingiz.

- O'zingizni bosib oling, aka, - hozirjavoblik bilan javob berdi do'kondor. - Ichkarida mol ko'rsatdik, nima qilardik, aka. Siz qizishmay, oldin bundoq so'rang-da.

- Bir narsani isbotlayolmay, keyin javob berib yurmang, aka, - aralashdi ikkinchi sotuvchi ham. - Chiqib keting bu yerdan, bo'lmasa milisa chaqiraman.

Boyadan beri yalinib-yolvorayotgan Iroda kuch bilan sudrab sizni tashqariga olib chiqdi.

- Siz o'zingizni bosib nimalar bo'layotganini anglab yetishga harakat qilardingiz. Lekin yuragingiz dukillab urar, oyoq-qo'llaringiz dag'-dag' qaltirardi. Iroda qo'lingizdan tutib uyga shoshilar, siz uni siltab tashlab imillab qadam bosardingiz. Ancha joygacha lom-mim demay bordingiz. Bir mahal:

- Kim u? - deb so'radingiz xotiningizdan.

- Bir sotuvchi, - dedi Iroda, - o'zi yaxshi tanimayman uni. Siz o'ylagan hech narsa bo'lgani yo'q. Uyga boraylik, bir boshdan hammasini tushuntirib beraman.

- Hamisha shu do'konga qatnaysanmi?

- Bu nima deganingiz? Uyda tushuntirib beraman dedim-ku.

Yo'l-yo'lakay xotiningizga nisbatan shakllanayotgan nafratingiz kuchayganidan kuchaya borardi. Sizni ovutish uchun aytayotgan gaplari, qilayotgan sa'y-harakatlari makkorlikdan boshqa narsa emasdi nazaringizda. Siz unga mutlaqo ishonmayotgandingiz.

ВЪ"Shu paytgacha bir benomusni xotin qilib yurgan ekanman-da, - deb o'yladingiz. - O'zim ham g'irt befahm, ahmoq ekanman.

Xotiningiz qilib yurgan ishlarini allaqachon sezishim kerak edi. Ehtiyotkorroq bo'lishim zarur ekan. Endi befoyda, endi kech. Men uning javobini beraman. Xotiningizning suyuqoyoqligini boshqalar oldindan bilarkan. Keyin mening o'zimga aytishdi. Menga kuyunadigan odamlar yuzimga aytishdan istihola qilib telefon orqali yetkazishgan ekan-da..."

"Bugunoq uyiga jo'natib yuboraman, - deb ahdo' qildingiz avtobusdan tushib uyga yaqinlashayotgandi. - Bu bilan bir kun ham yashamayman endi. Birovlarga bildirib o'tirmay sekingina, imi-jimida pattasini qo'lga beraman. Hech qanday vaj-karsonlari o'tmaydi";

Ikkinchi qavatga ko'tarilib uyga kirib borganB-laringda qizingiz o'g'ilchangizni o'ynatib yaxshigina o'tirishgandi. Xotiningiz ularning qo'lga bozordan olib kelgan shirinliklarni berdi-da aldab-suldab narigi xonaga o'tkazib yubordi. Eshikni yopib sizga yuzlandi.

- Qandil olaman deb kiruvdim, - dedi. - IchkaB-rigi xonada yaxshilari bor, o'zingiz tanlab olaqoling, dedi.

- Keyin-chi?

- Keyin... ichkariga kirsam, qandillar bor ekan. Tanlayotuvdim...

- Nima bo'ldi?

- Ikkinchi sotuvchi ham bor edi, bir xaridor ham bor edi... Bunday qiladi deb hech xayolimga kelmovdi.

- Nima bo'ldi?

- ...

- Keyin nima bo'ldi deyaapman?

- Keyin... Menga... kutilmaganda hujum qilmoqchi bo'ldi. Lekin men bunga yo'l qo'ymadim, tashqariga qochib chiqdim. Chiqsam, siz bor ekansiz.

Siz unga kinoyali iljayib, ko'zlariga tik qaragancha indamay turdingiz.

- Ishoning! - deb yalindi Iroda. - Hech narsa bo'lgani yo'q. Sizni aldamayapman.

- Aldamayapsan-a! Shu gaplarga ishondi deb o'ylayapB-sanmi? Yoqavayron bo'lib chiqqaningni ko'rmadimmi, qanjiq! Betlaring ham chala so'yilgan sigirning go'shtiga o'xshab qip-qizil bo'p turuvdi-ku! Menga to'g'risini ayt, manavi matohlarni ham o'sha do'kondan olganmiding?

- Nimani aytyapsiz?

- Divanni aytyapman, kresloni, xontaxtani aytyapman, qanjiq!

- Olganman, - dedi kutilmaganda xotirjam tortib Iroda. - Yana bir narsani aytmadingiz. Stol bilan stulni ham o'sha do'kondan olganman. O'zingiz foydalanib yuribsiz endi...

- Ming la'nat! Suyuqoyoqlikdan kelgan stolinggayam la'nat!

- Tuhmat qilmang, xo'jayin, nima olsam ro'zg'oringizni deb olganman. O'zingizga qolsa... o'sha betayin, pulsiz ishingizdan boshqa narsani bilmaysiz. Odamlar uyim-joyim deb, ro'zg'orim deb jon kuydiradi. Siz-chi?! Uyga birov kelsa nomusdan o'lasan kishi. Na sharoitingizda, na yeb-ichishingizda ohor bor. Boshqalarni ko'rmaysizmi?! Boringizni oshirib, yo'g'ingizni yashirib yurganingma jon demaysizm? Men ham uyda yalpayib o'tirib olsam qo'lingizdan nima kelardi? Shu narsalarni siz qilishingiz kerak emasmi? Shu uyingizni deb o'lib-tirilib yurganingma rahmat demay meni fohishaga chiqargani uyalmadingizmi?! Tuhmat qilmang menga. Oldin isbotlang!..

- Isbot kerakmi? O'sha do'kondan olgan narsalaringni arzonga olgansan. Boshqa do'konlarga borib so'ra-chi, narxi qancha ekan. Olgan narsalaringni arzimagan pul berib qolganini badaningdan to'lagansan, bildingmi. Mana isboti! O'zim ham ko'rmadimmi? Ko'rmadimmi?

- Tuhmat qilmang.

Narigi xonaning yarim ochiq eshigidan qizingiz olazarak bosh ko'rsatib turardi. To'rt yashar o'g'lingizning ham g'ingshib yig'layotgan tovushi eshitildi.

Siz ahdingizda qat'iy edingiz. Irodaga javob berganingizni aytdingiz. "Hohlagan narsangni olib hoziroq uydan chiqib ket";, dedingiz. Iroda o'ziga qo'yilgan ayb aniq isbotini topmaguncha hech qayoqqa ketmasligini aytganda siz tutaqib ketdingiz.

O'zingizni idora qilolmay qoldingiz. Xotiningizni urib-sudrab soldingiz. Bolalaringiz uy burchagiga qapishib olganча chinqirib yig'lashardi. Shovqindan qo'shnilaringiz ham bezovta bo'la boshlashdi. O'rta yashar bir qo'shningiz kelib sizlarni tinchlantirmoqchi bo'ldi, foydasiz. Ko'p urinib oxiri janjalni bostirdi ham. U Irodani hozircha keta turishga ko'ndirdi. Keyin bir gap bo'lar, dedi. Xotiningiz yum-yum yig'laganча bo'g'cha tugdi. Bolalarni kiyintirdi. Chiqib ketayotib eshik yonida bexosdan to'xtadi-da, siz tomonga o'girildi. Qizarib ketgan alamli ko'zlarini ko'zlaringizga qadadi:

- Noshukur ekansiz, - dedi, - hali jazoingizni olasiz.

Sizga alam qilib ketdi: "O'zi nima ish qilib o'tiribdi-yu, yana menga nimalar deyapti bu kaltafahm tovuqmiya";. Shundoq ham o'zingizni bazo'r bosib ko'pchilikning oldidagi bu sharmandagarchilikdan mulzam bo'lib turgandingiz. Irodaning shu gapidan so'ng yana beixtiyor quyushqondan chiqdingiz. Irodaning yelkasidan tutdingiz-da, zarb bilan tashqariga itarib yubordingiz...

Siz ilgari hech qachon xotiningizga qo'l ko'tarmagan edingiz. Umuman, ayol kishini umringizda chertmagansiz. Ba'zan o'ylab qolaman. Agar ayolingizni urib turgan bo'lganingizda edi, shu mash'um, ko'ngilsiz voqea sodir bo'lmasdi, balki. Aytmochimanki, agar ilgari ham bir-ikki urib ko'rganingizda ayol kishining erkak oldida jismonan qanchalik ojiz, himoyasiz ekanligini anglagan bo'lardingiz. O'sha chog'da, ayni janjal bosilgan payti yana bir bor quyushqondan chiqib o'tirmasdingiz. Balki, bu gaplar endi o'rinsizdir. Taqdir hukmi, degan narsalar ham bor-ku bu dunyoda.

...Siz Irodaning yelkasidan tutdingiz-da, zarb bilan tashqariga itarib yubordingiz. Ayolingiz ichkaridan otilib chiqib yon devor bo'ylab sirg'alib ketdi. Bu paytda u zinapoyaga yetib qolgan edi. Haligi o'rta yashar qo'shningiz "voh";, deya ushlab qolish uchun Irodaga talpindi, lekin kechikdi. Iroda tizzalari yarim bukilgan holda zinapoya tomonga yuztuban qulab ketdi...

Qo'ni-qo'shnilar tezda mashina topib hushsiz, yuz-qovoqlari ko'karib qonga belangan ayolingizni kasalxonaga jo'natishdi. Birga-birga bordingiz.

Do'xtirlarning harakatlari esa zoye ketdi. Irodaning miyasiga qon quyilib qattiq jarohat olgan edi. Ikki kungayam yetmadi...

Bekmurod! Hadeb o'tmishingizni eslatib yarangizni yangilayotganim uchun sizdan uzr so'rayman. Bu narsa men uchun navbatdagi maktubimning mazmunini sizga yaxshiroq anglatish uchun zarur edi. Aytib qo'yaqolay, kelasi maktubim endi siz to'g'ringizda emas, o'zim haqimda bo'ladi.

Sizga sabr-toqat tilab, salom bilan..."

To'rtinchi Maktub

"Bekmurod!

Eslasangiz, o'sha Shodi do'kondor ham sudda qatnashib guvohlik bergan. U Irodaga o'ynash bo'lganini qat'iy rad etgan edi. Siz uning gapiga ishongansizmi, yo'qmi, menga qorong'u. Sizga qanday ta'sir qilishini bilmadim-u, bir haqiqatni aytishimga to'g'ri keladi: Iroda haqiqatan ham Shodi do'kondorga jazman bo'lmagan.

Rosti, do'kondorning baribiram bir o'ynashi bor edi. Biroq, u Iroda emas, asli, menman.

Mana, bir sir ochildi, ushbu maktublarni sizga qandaydir bir ayol kishi yo'llayotgani ma'lum bo'ldi. Yana biroz sabr qilsangiz, ismimni ham bilib olasiz.

O'sha paytlarda Shodi ham bir jazmanim bo'lgan. U ishratparastlik uchun vaqtini, pulini ayamaydiganlar xilidan edi. Boshi ochiq qiz-juvonlarga xushomad qilib o'ziga og'dirib olishga usta, agar yoqtirib qolsa boshida eri bor ayollarni ham yo'ldan urishdan toymasdi. Men bir necha bor uning pinhona "mehmoni"; bo'lgan, shuning uchun ham ancha yaxshi tanish edim.

Bir gal yo'lim tushib Shodi ochgan do'konga bordim. Suhbatlashib o'tirganimizda do'konga xotiningiz Iroda kirib qoldiyu U boshqa xaridorlar qatori jihozlarni ko'zdan kechirib yurardi. Irodani zimdan kuzatib o'tirib miyamga yaramas bir fikr keldi.

Shodiga xotiningizni ko'rsatib:

- Mana bu juvon qalay ekan, nima deysan? - dedim.

Shodi Irodani ko'z qiri bilan asta kuzatib turdi.

So'ng:

- Yomon emas, - dedi. - Sen uni taniysanmi?

- Taniyman.

- Gaplasha bo'ladimi?

- Nega bo'lmas ekan. Qalovini topsang qor ham yog'adi.

- Unda menga shuni gaplashib beraqol.

- Bo'lmaydi. Uni orqavartdan taniyman, xolos. O'zingiz yo'lini qiling.

- Eri bormi?

- Bor. Eriniyam taniyman. Bir maoshxo'r. Shunday juvonnini iqtisoddan qiynab xor qilib yuribdi.

Shodi xaridorlarga birma-bir mulozamat qilib Irodaga yaqinlashdi.

- Nima olasiz, singlim, tortinmay so'rayvering, - dedi. - Divanmi, kreslomi, shifonermi, bufetmi, so'raganga haq olmaymiz. Sifati yaxshi, qarang. Narxi past. Hech qayerdan bunaqa arzonini topolmaysiz. Shahar aylanib, ko'rib yuribsiz-ku.

- Mana bu divan qancha turadi? - deb so'radi Iroda.

- Komplekt bu, ikkita kreslosiyam bor. Qarang, qanday chiroyli. Narxi oltmish ming. Sizga tushib beraman.

- Divanning o'zini sotmaysizmi?

- Ha endi, komplektda bu, olavering, qimmat emas-ku.

- Qimmat, - dedi Iroda zardali ohangda.

Shodi yana yonimga keldi. Menga sekingina:

- Buning chaqadi-ku, - dedi.

- Shodi aka! - dedim men. - Divanning o'zini sotaqoling shunga. Yana, arzonga bering. Shunday qilsangiz keyinchalik kreslolariniyam o'zi olib ketadi.

- O'ho', jonidan, biz buyoqda ubitkaga tushamizmi?

- Ubitkaga tushadigan bo'lsangiz, yetmaganini men to'layman.

- Qanday?

- Qanday xohlasangiz shunday.

Shodi basharamga tikilib turib:

- Gapingda turasanmi? - dedi.

- Turaman.

Shodi do'kondan endi chiqay deb turgan Irodani to'xtatib boyagi divanning o'zini kreslolarisiz sotishga rozi ekanligini aytdi.

Savdolashib Iroda taklif qilgan narxgayam ko'ndi. Aravakash topib kerakli joygayam yetkazib berishni-da bo'yniga oldi.

"Xo'jayiningiz bilan kelishib kreslolarni ham o'zingiz olaqoling, - dedi Shodi, - sizga ushlab turaman, arzonga beraman";.

Shodi Irodaning hojatini chiqarguncha qarab turdim. Xotiningiz ketgach, savdolashib sotilgan divanning narxini qaytadan chiqardik. Yonimdan pul olib oradagi farqni to'lab qo'yaqoldim.

- Bu senga nimaga kerak? - deb so'radi Shodi.

- Kerak-da, - dedim men. - Kreslolarni ham so'rab kelsa, berib yuboring. Farqini yana o'zim to'layman. Siz harakatingizni qilavering-da endi.

- Bu deyman, shu juvonda qasding bor-ov.

- Sizga nima farqi bor?

- To'g'ri, - dedi Shodi. - Menga nima farqi bor.

Haqiqatan, o'ylagan niyatim yomon bo'lgan. Men shu rejam orqali Irodani yo'ldan urmoqchi edim. Bu ishim tuzukkina natija berishiga ishonardim.

Kunlarni quvib kunlar o'tardi, lekin Iroda xayolimdan ketmasdi. O'sha kuni, do'konda, jihozlarni birma-bir ushlab, silab ko'rayotgani, sotuvchidan narxini so'rashga botinolmayotgani, xuddi omonatdek, cho'chitsang hozir pirillab uchib ketadigan qushdek o'zini tutishi ko'z oldimda gavdalanaverdi. Qo'lidan kelgancha o'ziga oro bergan bo'lsa-da, odmigina kiyim-bosh, harakatlari uning oddiy bir oiladanligini, uyim deb, joyim deb jonini jabborga berib yuradigan jafokash, hayoli ayollar xilidan ekanligini ko'rsatib turardi. Shunday bir juvonga qo'llayotgan bu hunarim o'ta ayanchli ekanini o'ylab o'zimdanda o'zim jirkanib ketdim. Axir axloqsiz bir ayol boshqasiniyam yo'lga tortaversa, niyatiga yetaversa oqibati nima bo'ladi? Tom ma'nodagi ayol degan nomning qadri qayerda qoladi. Men nima qilyapman o'zi. Bir begunoh jinsdoshimga shunchalik jabr qilish, burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirishga teng emasmikan. Shaxsiy armonlarim, ranju alamlarim tufayli nish urayotgan yovuzlik, shafqatsizlik ildizlarini o'z vaqtida quritishim zarurligini sezib qoldim. Inson ekanligimni batamom unutib qo'ymasligim, ozgina bo'lsa-da diyonatim borligini, o'zinning, yaratganning qarshisida isbotlashim uchun anchadan beri xayolimni, vujudimni egallab olgan qasd olish niyatimni yumshatgim keldi.

Vaqt topib Shodining do'koniga bordim. Do'kondor meni ko'rib quvonib ketdi:

- O'zi sen kerak eding, kelganing yaxshi bo'ldi, - dedi.

- Nima gap?

- Anavi Iroda degani kecha kelib kreslolarni ham sotib olib ketdi. Kelishilgan bo'yicha yana arzonga berib yubordim.

Men noiloj qoldim. Va'damga vafo qilib kresloB-larning haqiqiy narxi orasidagi farqni to'lashimga to'g'ri keldi.

- Endi boshqa narsa olsa farqini to'lamayman, - dedim. - Mening ortiqcha pulim yo'q. Iltimos, o'sha Irodaning boshini aylantirib yurmang endi. Menga shuyog'iyam yetadi.

- Xo'p, xo'p, go'zalim, - dedi Shodi. - Lekin qarasam baribiram zo'r narsa ekan.

O'sha kuni yelkamdan tog' qulagandek o'zimni yengil sezdim. Sarflagan pullarimga ham achinmadim. Hayotim davomida qilayotgan xatolarimdan birini o'z vaqtida tuzata bilganimdan xursand bo'ldim. Shu qilgan to'g'ri ishim evaziga adovatimni ham unutishga rozi edim.

Biroq hodisalar oqimini, taqdirni hech qachon izmingda tutib turolmaysan. Hayot kitobi turmush yo'lida senga har doim sen o'qishni taxmin qilmagan yangi-yangi sahifalarni ochib boradi. Unda o'qigan satrlarning ma'nosini hali yaxshi tushunib

ulgurmay navbatdagi varaqqa o'tishga majbursan. Shuning uchun ham biz kundalik xarajatlarimizni, o'zimiz xohlaganday idora qilishga, tirikchilik shartlarini risoladagidek ado etishga qodir emasmiz... Bahor kunlarining birida bekatdan turib Irodaning bir aravakash ko'magida xontaxta, karniz olib o'tayotganini ko'rib qoldim. Qayerdan olganini bilmadim-u, bu jihozlar Shodining do'konida ham borligini esladim. Mulohaza qilib ko'rib meni vahima bosdi. Borayotgan manzilimdan qaytib Shodining do'koniga yo'l oldim. Shodi do'kon ichida hisob-kitob daftarini titkilab o'tirardi. Meni ko'rib:

- Keling endi, go'zalim, - deb qarshi oldi.

So'rashgach, unga yo'lda Irodani ko'rganimni aytdim.

- Xontaxta oldi bugun, - dedi. - Karniz ham sotdim. Arzonga sotdim, - deya hirlingladi Shodi.
- Arzonga deysizmi?
- Qo'rqma, suluvim, farqini sendan olmayman. Endi bu yog'ini o'zimiz kelishaveramiz.

Shodining g'irromliklarini oldindan hisobga olmaganimdan afsus chekdim. Sir boy bermay:

- Qalay, yo'lga kiryaptimi? - deb so'radim.
- Ancha-muncha qaysar ekan lekin. Odamni nuqul ubitkaga tushiryapti.
- Undan voz keching degandim-ku.
- Yoqib qolganda, qurg'ur. Endi voz kechib bo'lmaydi.
- Shodi, iltimos, - dedim. - Uni o'z holiga qo'ying.

Shodi qo'lidagi daftarni zarda bilan bir tokchaga irg'itdi.

- Jonim, - dedi menga yuzlanib. - Buyog'i endi bizning ishimiz. Ubitkani kim to'laydi, ubitkani. Sen to'lamaysan-ku.
- To'layman, - dedim.
- Yo'q, endi anov jononning to'lovi kerak, bildingmi..."

#### Beshinchi Maktub

"Bekmurod! Men o'shanda nima qilarimni bilolmay qoldim. Shodi tutgan joyini qo'ymaydiganlar toifasidan edi. Irodani isnoddan saqlab qolish chorasini ko'p qidirdim. O'zi bilan uchrashib tushuntirsam bo'lmasdi. O'zimni oshkor qilishni istamadim... Sizdan bir o'tinchim bor, Bekmurod. Marhum xotiningizga malomat toshini otmang. Iroda hech qachon xiyonat yo'lga kirmagan. U eriga sodiq bir ayol sifatida nimani qilgan bo'lsa sizning oilangiz obodligi uchun qildi. Siz yon-vingizga alanglamay o'zingiz amal qilgan e'tiqodningizda mahkam turgan holda bir kun kelib kelajakda yetishingiz lozim bo'lgan farovon, to'kis hayot ilinjida yurgan kezingizda ayolingiz na kechiktirib, na inkor qilib bo'ladigan bugungi kun tashvishlari bilan yashadi, zahmat chekdi. Chekiga tushgan mushkul vazifani sidqidildan halol bajardi. Holbuki, Irodaning kechirgan hayotini men kabi yo'ldan adashganlar orzu qiladi, xolos. Mening Irodada aslo xusumatim yo'q edi, qasdim... sizdan, faqat sizdan edi. ...Men o'shanda shunday yo'lni tanladim-ki, maqsadim, ham Irodani o'ta xavfli yo'ldan qaytarish, ham bir yo'la... bir yo'la sizdan qasd olish edi. Yo'lni qilib qo'lga tushirgan telefon raqamini terib ishxonangizga sim qoqdim. O'sha siz eshitgan gaplarni men aytgan edim: "Bekmurod! Eshityapsizmi? Ayolingizni sizga qanchalik vafodorligini uyingizga opkelingan arzon-garov jihozlardan so'rang";. Shu gapni eshitib sizning yomon ahvolga tushishingizni istadim. Yuragingizga g'ulg'ula oralab o'zingizni qo'yarga joy topolmay qolishingizni xohladim. Butun vujudingizdan dahshatli kechinmalarni o'tkazishingizni, bir kun, aqalli bir kun bo'lsa ham o'z yog'ingizda o'zingiz qovrilishingizni ixtiyor etdim. Mening o'ylagan o'yim bo'yicha siz uyga borib Irodani qiynoq-qistovga olishingiz, surishtiri-shingiz, bir kun, bir kungina aziyat chekishingiz lozim edi. Ertasi kuni esa men yana ishxonangizga, sizga sim qoqib, bor gapni tushuntirib, o'zimni ham tanitmoqchi bo'lgandim. Irodani oqlab bermoqchi edim. Afsus, ming afsuslar bo'lsinki... Ertasi kuni ishxonangizga telefon qilsam, ishda yo'qligingizni, negadir bugun kelmaganingizni aytishdi. Shunda meni vahima bosdi. Miyamga ming o'ylar kelib xavotirim kuchaygandan kuchaydi. Ko'pam o'ylab o'tirmay uyingizga jo'nadim. Yo'lda kallamga yana bir fikr keldi: "Bekmurod Shodining do'koniga borarmikan?"; Ortinga qaytib do'konga shoshildim. Kirib borsam Shodining o'zi bor ekan. Meni ko'rib yeb qo'ygudek o'qrayib qaradi.

- Nima gap? - deb so'radim o'zimni xotirjam tutishga urinib.
- Iroda keluvdi, - dedi Shodi pinagini buzmay.
- Iroda?
- Ha, Iroda. Orqasidan erkagini sen yuboruvdingmi? Akasimidi, erimidi u. Yo tog'asimidi?
- Men hech kimni yubormadim.
- Sen yubormagan bo'lsang, tuzuk, - dedi Shodi, endi u yoq-bu yoqqa alanglab. - Iroda keluvdi. Sen aynitib qo'ymay bir haqqimni olay deb aldam ichkarigi xonaga olib kirgan edim. Bir quchoqlashga ulgurdim, xolos. Kiyikdek hurkak ekan zang'ar, sug'urilib qochdi. Tashqarida bir erkak tanishi bor ekan palakat, sezib qoldi.
- Keyin-chi?
- Keyin-chi emish. Keyin erkagi menga o'shqirib kapalagimni uchirdi, g'ajib tashlay dedi. Bir amallab chiqarib yubordim. Sherigim melisa chaqiraman deb po'pisa qiluvdi, shundan pasaydi-yov... Shodi gapirib turgan chog'da men tashqariga otildim. Avtobusga o'tirib to'ppa-to'g'ri uyingizga jo'nadim. "Nima bo'lsam men bo'lay";, - deb o'yladim. - Ertaroq bir falokatning oldini olay". Zarur bekatga yetgach, avtobusdan tushdim-da yo'lak bo'ylab jadal yurib ketdim. Yaqinlashganimda xonadoninB-giz joylashgan ikki qavatli uy eshigi yonida bir to'da odamlarni, yengil mashinani ko'rdim. Xavotirlanib qadamimni tezlatdim. Yetib borgunimcha yengil mashina joyidan jilib to'dadan uzoqlashdi. Hali tarqamay, gap-so'z qilib turgan kishilarning biridan nima gapligini so'radim.
- Bir qo'shni ayol zinadan yiqilibdi, - dedi u.
- Oti nima?
- Iroda..."

#### Oltinchi Maktub

"Maktabni bitirish davrlaringizni eslaysizmi? Buni unutilib bo'larmidi. Shunga yigirma yildan oshib ketibdi.

Sinfdagi eng mag'rur, eng olifta bola edingiz. O'zingiz mutlaqo ajralib turardingiz. Boshqa bollarga o'xshab chuchmal gaplar gapirish, bachkana qiliqlar qilish sizga begona edi. Bejirim kiyinishingiz, o'zingizni tutishingiz, gap-so'zlaringiz, fikrlaringiz sizni tengdoshlar orasida yoshi ulug'dek ko'rsatardi. Sinfdoshlaringiz ham o'zlari sezmaganda sizga buysunishar, ortingizdan ergashardilar. To'g'risi, siz ularni unchalik mensimasdingiz ham. Bollar, qizlar buni sezishmasa-da, o'rganib ketishgan, go'yo shunday bilishi kerakdek edi. Yolg'iz O'rolga biroz xayrixohlik bildirardingiz chamamda, u bilan yaqin do'stlik rishtalarini unchamuncha bog'lagandek edingiz, birga yurardingiz.

Agar bilsangiz, sinfdagi hamma qizlar bilan sizni yoqtirishsa-da, lekin ajabo, sevib qolishdan qo'rqishardi. Bunga haqlari yo'qdek, munosib emasdek bilishardi o'zlarini.

Bekmurod! Endi aynan kimligimni, ismimni oshkor qilish vaqti keldi deb hisoblayman. Men o'sha sinfdosh qizlaringizning biriman. Men Noilaman.

Balki unchalik eslayolmassiz ham, chunki men siz bilan ikki yilgina sinfdosh bo'lganman xolos.

Kichik qishlog'imizdagi sakkiz yillik maktabni bitirib yuqori sinflarda o'qish uchun sizlarning qishlog'ingizga kelgan edim. Xolamniki turardim. Attestat olib instituga kirishni orzu qilardim. O'qishlarim yaxshi bo'lganligi uchun ota-onam katta o'qishlarga borishimga qarshi emas edilar. Lekin kelajak rejalarim, umidlarim qanchalik ulkan bo'lmasin, bu yerda sizni uchratgach qalbimga hali notanish, yovvoyi, iliq bir tuyg'uning ham sizib kira boshlaganini his etardim. Sizni yoqtirishadigan boshqa sinfdosh qizlar singari hislarimni jilovlab yurishga qurbim yetmas, rosti, sizni sevib qolishga o'zimni noloyiq deb hisoblamasdim.

Ataylab orqa partada o'tirib ko'zlarimni sizdan uzmasdim. Oq yuzingizga, dudoqlaringizga, ko'zlaringizga soatlab qarab o'tirishga rozi edim. Did bilan taralgan qop-qora sochlaringizni borib silagim kelardi. Siz esa parvo qilmasdingiz. O'zgaralar allaqachon sezgan narsani siz sezmasdingiz, sezsangiz-da, sezmaganga olardingiz.

Ayni o'sha chog'larda, xolamning uyidagi mo'jaz xonamda, yashirib yuradigan xotira daftarimning orasida yaqin o'rtog'ingiz O'rol yozgan xatlar ham yig'ilib borardi.

O'rol o'zining menga bo'lgan muhabbati shunchaki havas emasligi to'g'risida yozardi. O'ziga rom qilish ishtiyoqida sevgi she'rlari bitardi. Mening unga xayrixohlik bildirishimni so'rardi, agar uni rad etmasam bir umr meni avaylab-asrashini, e'zozlashini, hurmat qilishini aytardi, va'dalar berardi. Ammo men O'rolning dil izhorlariga javob yozmasdim. Xatlarini esa yoshlik yillarimdan bir xotira sifatida saqlab qo'ygim kelardi, xolos.

Men sizga xatlar yozmasdim, sevishimga ishora qilingan biror so'z aytmasdim. Bularni sizdan kutardim. Intiqib kutardim.

Nihoyat, 10-sinfda o'qishni tugallab davlat imtihonlarini topshirishga tayyorlana boshladik. Bir kuni tayyorlanish chog'ida sinfda o'tirib bir sinfdosh dugonamning yangi sotib olgan narsasini qizlar bilan tomosha qildik. Bu ayollar soati edi. Qizil qutichasidan olib birma-bir taqib ko'rdik. Navbat menga kelganda qo'limga taqib olib:

- Shuni menga be-er, - deb yalindim egasiga hazilB-lashib. - Shunaqasini juda xohlardim, beraqo-ol.

- Ho-o, - dedi dugonam ham qo'limga yopishib. - Kerak bo'lsa o'zing ol.

- Bo'lmasa qutichasini ola-ay...

Kulishib o'tirdik. Sinfda o'g'il bolalar ham bor edi.

Bu suhbatni yodga solganim, sizga eslatganim ham bejiz emas. Balki shu suhbat sodir bo'lmaganida...

So'nggi imtihon kuni siz meni chetga chaqirdingiz-da, qo'limga qog'ozga o'rog'lik narsa uzatdingiz.

- Bu nima? - deb so'radim.

- Olaver, sovg'a.

Sira kutilmagandim. Biroz kalovlanib qoldim.

- Olaver, olaver. Senga. Xatiniyam o'qi!

Men oldim, siz boshqa hech narsa demay qayrilib ketdingiz.

O'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Ovloqroq joy qidirib ancha ovora bo'ldim. Quvonchim ichimga sig'masdi. Hozir portlab ketadigandek edim. Bir sinfga kirib eshikni yopdim-da, uni orqam bilan tutib turgan holda qog'oz o'ramini sekinlik bilan ochdim.

Ichida qizil rangli soat qutisi bor edi. Haligi dugonamnikidan.

Entikib ketdim: "Nahotki, nahotki Bekmurod menga birdaniga soat sovg'a qilayotgan bo'lsa";. Qutini ochib qaragam ichidagi soat emas, qatma-qat taxlangan munchoq ekan. Dur munchog'i. Munchoqni qo'limga oldim-da aylantirib tomosha qildim. Uning soat emasligidan zarracha ham xafa bo'lganim yo'q. Bu nima ekanligidan qat'iy nazar Bekmurodning Noilaga qilgan sovg'asi edi. Keyin xatni qidirdim. Bir enlik xat qutichaning tubida ekan. Ochib o'qidim: "Noila! Kechga tomon, buzoq izlab toshqo'raga kel. Senga zarur gaplarim bor";.

O'sha kuni uyga qaytgach, munchoqni bo'ynimga taqib o'zimni shifoner oynasiga soldim. Aksimga boqib dunyodagi eng chiroyli, eng baxtli qiz o'zim ekanligimdan gururlanib ketdim.

Endi kech bo'lishini kutardim. Bekmurodning "zarur"; gaplarini tinglash uchun, o'zimning ham dil-izhorlaB-rimni aytish uchun jon-jon deb toshqo'raga boraman.

Xolamlarning uylari qishloqning chetrog'ida, kunbotish tomonda joylashgan bo'lib, yaylov boshidagi ko'hna, tashlandiq toshqo'ra u yerga yaqin edi. Ertalab podachi mollarni yaylov ichkarisiga haydab ketgach orqasidan buzoqlarni bo'shatardik. Poda qaytishdan oldin har kuni buzoq izlagani chiqardik. Ko'pincha ularni eski toshqo'ra atrofida topib haydab kelardik.

O'sha kuni kechga tomon har kungidek xolamning qizchasini ergashtirib olmay "buzoq izlagani"; yolg'iz chiqdim. To'g'ri toshqo'ra tomonga bordim. Yon-atrofdagi o'tlab yurgan buzoqlar ichida xolamniki yo'q ekan. Bu menga ayni muddao edi. Buzoq u yerda yo'q ekan, deb qo'yaqolaman. Boshqalar kelsa bizni ko'rib qolmasin deb o'tlab yurgan buzoqlarni haydab bir joyga to'pladim-da, chuchulab qishloq tomonga quvdim.

Alanglab qidirdim, ko'hna toshqo'raning yon-berida siz ko'rinmadingiz. Shunda tomi yo'q cho'pon chaylasi tomondan zaif hushtak ovozi keldi. Kelmaganmi, deb o'ylovdim, sasingizni eshitib ko'nglim xotirjam tortdi. Ko'z yugurtirib atrofda hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach chayla tomonga yurdim. Yaqinlashib eshik o'rnidan ichkariga qaradim. Ko'rinmadingiz. Ko'nglimga bir xavotir oraladi, lekin yana tinchlandim.

Sizni hazillashyapti, ichkarida yashirinib turibdi, deb o'yladim.

- Bekmurod, ichkaridamisiz? Bekmurod! - deb chaqirdim.

- Shu yerdaman-ku, - degan past, bo'g'iq tovush eshitildi.

Bu sizning tovushingiz ekanligiga ishonдим. Yurak hovuchlaganча sekin yurib ichkariga qadam qo'ydim-u, devor panasida... devor panasida Murtozni ko'rdim. Bu o'sha, bir amallab harbiyni bitirib kelib ish yoqmaslikni kasb qilib olgan bozorchi, ota-onasini sho'rlatib bir hafta qishloqda, bir hafta shaharda izg'ib yuradigan daydi, to'ylarda mast bo'lib janjal chiqaradigan betayin, o'g'irlik, g'arlik qilib qishloqdagiB-larning joniga tekkan xudobezor Murtoz edi.

Men uni ko'rdim-u, qo'rquvdan tosh qotib qoldim. U shartta qo'limdan tutib meni o'ziga tortdi.

- Qo'yib yuboring! - deb baqirib yubordim.

- Qo'rqma, senda gapim bor, menga quloq sol.

- Qo'yib yuboring, hozir yana baqiraman.

- Baqirma, birov eshita o'zing sharmanda bo'lasan. Men seni yaxshi ko'raman. Seni olaman.

Men jonimning boricha qichqirmoqchi bo'lib og'iz juftlaganimda u meni shartta quchoqlab og'zimni bekitdi. Qo'ynidan harchand qutulishga chiranmay unga bas kelolmay qoldim. U qobondek kuchli va shafqatsiz edi...

...Toshqo'ra atrofidan podachining hayqiriqlari, qoramolning tuyoq tovushlari kelib turardi. Quyosh botib shom yaqinlashayotgan edi.

- Poda o'tib ketsin, keyin uyga ketasan, - dedi Murtoz.

- Iflos, sen endi qamalasan.

- Unday dema, Xudoy saqlasin, men senga uylanaman.

- Ikki dunyodayam senga tegmayman.

Poda qishloqqa yoyilib shom tushib qolganida uyga kirib bordim. Xolam sigir sog'ayotgan ekan. Meni ko'rib:

- Qayoqda eding, Noila, buzoq o'zi keldi-ku, - dedi.

- Uni izlab yuruvdim.

Yig'lamsirab gapirganim, ovozimdagi o'zgarishni sezib xolam hayron bo'ldi. Sigir sog'ishdan to'xtab, turib yonimga keldi:

- Nima bo'ldi senga, - dedi aft-angorimga, ust-boshimga qarab. - Yiqildingmi?

Men ho'ngrab yig'lab yubordim:

- Ha, yiqildim, - dedim-u, xolamni quchoqlab oldim.

- Qayerda yiqilding, Noila?

Men ich-ichimdan bo'zlab yig'laganча:

- Yiqildim, xolajon, yiqildim, - derdim. - Men yiqilib tushdim, xolajon. Yomon yiqildim".

#### Yettinchi Maktub

Bekmurod! O'shanda xolam mening nomusim toptalganini bilib ich-ichidan kuyib ketdi. Meni uyiga olib kelganidan ming pushaymon yedi. Biroq sharmandagarchilikdan qutulish uchun buni yashirishdan o'zga ilojimiz yo'q edi. Xolam qancha zo'rlagani bilan Murtozni aytmadim. Mabodo, unga tegishimga to'g'ri kelib qolsa, buni sirayam xohlamasdim.

Kechalari o'ylab mijja qoqmay chiqardim. Nahotki Bekmurod meni aldab Murtozga to'g'rilagan bo'lsa. Yo'q, bo'lishi mumkin emas. U shunchalik past ketadigan yigitlardan emas. Uning ishi chiqib borolmay qolgan bo'lsa kerak. Murtozning u yerda paydo bo'lib qolishi tasodifiy. Orqamdan tushib poylab borgan, chunki tez-tez u yerdan buzoq haydab kelishimni bilgan bo'lishi mumkin. Taxminim to'g'ri chiqishi uchun siz borolmaB-ganingiz sababini aytishingiz lozim edi. Lekin negadir bunday bo'lmadi. Siz domdaraksiz ketdingiz.

Qanchalar tushkun kayfiyatda bo'lmayin, o'sha yili xolam meni avvaldan o'zim xohlagan tibbiyot institutiga hujjat topshirishga ko'ndirdi.

Bilasizmi, mening izimdan borib O'rol ham o'sha institutga hujjat topshirdi. O'rol o'tdi, men yiqildim.

Hayot davom etar ekan, ne bo'lgandayam inson to'xtab qolmay yashash uchun kurashaveradi. Toptalgan umidlari o'rnini yangilari egallaydi. Yurakdagi dog'larni g'ubor qoplaydi.

Endi men ham qishloqqa qaytib g'amlarga ko'milib o'tirmoqchi emasdim. Shaharda tibbiyot texnikumiga o'qishga kirdim.

Hayotimni yaxshilashim, izga solib ketishim uchun sa'y-harakatlar qilishim darkor edi.

Oradan bir yilча vaqt o'tib meni izlab Murtoz texnikumga bordi. Na o'qishda, na yotoqxonada hol-jonimga qo'ymay orqamdan ergashib yurdi. Gaplashsam, maqsadi menga uylanish emish. Agar o'zim rozi bo'lmasam qishloqqa borib jar solarmish. Haqiqatni, mening uniki ekanligimni aytarmish.

Murtozdan hamma narsani kutsa bo'lardi. Jinnilik qilib qishloqqa laqillab qolsa sha'nim bulg'anishini, xolamning, ota-onamning ham holi ne kechishlarini o'ylab meni vahima bosdi. Bu tentak bilan murosa qilishim kerak edi.

- Siz meni unuting, - dedim unga. - Holingizga qarab ish tuting. Siz uy qilib bola boqolmaysiz.

- Nega endi boqolmas ekanman, boshqalardan kam joyim bormi?

- Betayinsiz. Shu paytgacha bir ishning boshini utmagansiz. Uylansangiz, meni ham xor qilasiz.

- Yo'g'e, Xudoy saqlasin. Hali ishga o'tib bir odam bo'lay... Mashina ham olaman. Mana ko'rasan. Senga aytmadimmi, qurilishga ishga o'tyapman-ku. Uy olishgayam yozilaman.

- Ishga o'tib odam bo'lsangiz keyin bir narsa deymen, - dedim men. - Ungacha xayr!

Shundan keyin Murtoz ko'rinmay qoldi. Oradan bir hafta o'tib yana paydo bo'ldi.

- Odam bo'ldim, - dedi u. - Qurilishda ishlayapman. Bugun, erta dam olish. Shunga keldim, avans ham oldim. Mana, - u do'ppayib turgan kistasini ko'rsatdi. - Yur, seni aylantirib kelaman.

- Aylanishga hali erta, - dedim men. - Pullaringizni behudaga sovurmay, yig'ing, uy oling, keyin to'y qilib...

- Hammasi bo'ladi, - dedi Murtoz. - Yo'q dema endi, darrov o'zim olib kelib qo'yaman.

Yalintiraverishdan xijolat bo'lib, ko'ndim.

U shahar aylantirdi. Kinoga olib tushdi. Ovqatlandik. Keyin u meni yotoqxonaga olib kelib qo'ydi.

Murtoz men o'ylagandan boshqacha ekan. Yuzi xo'mB-raygan, kallasi katta, sersocho, gavdali, ko'rinishidan hurpaygan bo'rini eslatadigan ko'rimsiz bir yigit bo'lsa-da, aslida xushchaqchaq, tavakkalchi, to'pori, sodda edi.

Biz endi har hafta dam olish kunlari aylanishga chiqadigan bo'ldik. Murtoz ko'nglimga qarab aytganimni qilar, kulgili qiliqlari, gaplari bilan dimog'imni chog'lardi. Bir yakshanba kuni biz yana aylanishga chiqdik. Murtoz menga domdan bir bo'sh uy topganligini, uni sotib olmoqchi ekanligini aytdi.

- Xohlasang hozir olib borib senga ko'rsataman, - dedi.



- Necha xonali?
- Bir xona, lekin toza, zo'r uy. Hamma sharoiti bor. Arzonga gaplashyapman.
- Men bormayman, - dedim. - O'zingizga yoqsa olavering-da.
- Endi, sen ham ko'rgin, iltimos.

Men noiloj rozi bo'ldim. O'sha uyga borib uchinchi qavatga ko'tarildik. Men uy eshigi yonida kutib turdim, u to'rtinchi qavatga ko'tarilib uy egasidan kalitni olib keldi. Men hayron bo'lib:

- Egasi o'zi ko'rsatmaydimi? - dedim.
- E-e, u bizning akaxonda bo'ladi-ku. Qurilishda birga ishlaymiz.
- Uy eshigini ochib ichkariga kirdik. Xona rostdan ham yaxshi edi.
- Shu uyni olaman, - dedi Murtoz. - Keyinchalik ko'p xonalisiga almashtirib olaveringiz.
- Yaxshi, ketdikmi endi?
- Ketamiz, kel ozroq o'tiraylik. Gaplashaylik munday. Meni planlarim katta. Sen menga tegsang bo'ldi, faqat. Keyin borib-borib ko'p xonali uyni ham sotib kottej-hovli olamiz. Hali mixday yashab ketamiz...
- Biz xonadan juda kech chiqdik.
- Endi biz Murtoz sotib olayotgan uyda tez-tez uchrashib turadigan bo'ldik. Unga turmushga chiqishga rozilik berdim.
- O'sha uchrashuvlarning birida Murtoz menga bir sirni ochdi..."

#### Sakkizinchi Maktub

"Bekmurod! O'sha uchrashuvlarning birida Murtoz menga bir sirni ochdi.

Maktabni tugallash arafasida sinfda o'tirib bir sinfdosh dugonamning qizil qutichadagi soatini taqib ko'rganimizni sizga eslatgan edim. Buni o'g'il bolalar, shaxsan siz ham ko'rgan edingiz. Mahalladoshingiz Murtoz o'sha kezlarda siz bilan tez-tez hangoma qilib turardi. Bir kuni u sizga dardini ochishga jazm qiladi:

- Noila degan sinfdoshing bor-a?
- Bor, nima edi?
- Toza zo'r qiz-da lekin, to'g'rimi?
- Bilmasam.
- Seni yaxshi ko'rar ekan, eshitdim. Sen ham yaxshi ko'rasanmi?
- E, qo'ysangiz-chi. Men yaxshi ko'rmayman.
- To'g'ri qilasan. Momo qilarmiding uni. Noilani menga ber, men yaxshi ko'raman lekin.

Siz kulib qo'ydingiz. Keyin:

- Mayli, olavering, - dedingiz.
- Lekin, jo'ra, bitta muammo bor, u bilan uchrashay desam uchrashmaydi-da.
- Nega endi?
- Nega desang, men senga o'xshagan kelishgan emasman-da.
- Kim aytdi buni, sizday chiroyli yigit bormi.
- To'g'ri aytasanku-ya, buni o'zim ham bilaman, biroq qizlar bilmaydi-da.
- Unda nima qilish kerak? - deb so'ratingiz.
- Menga bir yordaming kerak-da. Meni Noila bilan uchrashtirsang, - dedi Murtoz.
- Qanday qilib?
- Sen Noilaga bir joyga uchrashishni taklif qilsang bo'ldi, keyin o'sha joyga men boraman.
- E, yo'g'-e, - dedingiz siz. - Men bunday qilolmayman. O'zingiz yo'lini qilib uchrashavering.
- Bir iltimos qiluvdik-da endi, uka. Odamning odamga ishi tushmaydimi. Mana, maktabni bitiryapsan, o'qishga jo'nayapsan. Erta-indin shaharga borasan. Qishloq bolasiga shaharda joylashish qiyin. Shaharni mana biz yaxshi bilamiz, uka. O'sha yoqlarda bizning ham yordamimiz tegib qolar. Kvartira, yotoqjoy deganday, yurish-turish deganday... Qari bilganni pari bilmas... Siz bu gaplardan o'ylanib qoldingiz. Balki Murtozdan biroq cho'chigandirsiz ham, chunki u shaharda sizga yaxshilik qilishdan tashqari, asabiga tegsangiz, yomonlik ham sog'inishi mumkin.
- Unda... - dedingiz tutilib, - o'sha Noilaga avval sovg'a berish kerak, o'shanda yaxshi chiqadi.
- O'-o', barakalla, qanday sovg'a beray, sen bilasanmi?
- Maslahatim, u hozir chiqqan ayollar soatini yaxshi ko'radi. O'shandan sovg'a qiling.
- Soat deysanmi? Soat qimmat-ku.
- Unda boshqa narsa sovg'a qiling.
- Mayli, lekin o'shani sen o'zingning nomingdan berasan, maylimi?

Sizning ensangiz qotib o'ylanib qoldingiz-da:

- Mayli, - dedingiz.
- Kechasi, allamahal uyingizga birov chaqirib keldi. Uydagilar sizni Murtoz chaqirayotganini aytishdi.

Murtoz sizni yorug' joyga olib bir munchoq ko'rsatdi:

- Pul kam edi jo'ra, - dedi. - Shuni topdim.
- Yaxshi, o'zingiz bering-da, endi.
- Yo'g'-e, kelishdik-ku, sen berasan. O'sha sen aytgan yangi chiqqan soatniyam topdim. Lekin qutisi menga tegdi. Munchoqni shuning ichiga solamiz. Shuni ertagayoq Noilaga olib borib ber. O'zingning nomingdan ber. Bo'lmasa olmaydi. Keyin, toshqo'ra bor-ku, o'sha joyga kechqurunga taklif qil. Bo'ldimi?
- Nega endi toshqo'raga
- Ovloqroq-da, jo'ra.
- Nima qilasiz u yerda?
- E-e, hech narsa qilmayman, qo'rqma, gaplashaB-man, bo'ldi. Oqshomga chaqirmayapman-ku.

Siz yana o'ylanib qoldingiz. Murtozni shuncha ovora qilib endi rad etishga rosmana cho'chiy boshladingiz. So'ngra rozi bo'ldingiz...

Murtoz shu sirni ochganda sizga nisbatan menda nafrat hissi paydo bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik sizdan qasd olishni ko'nglimga

This is not registered version of TotalDocConverter

tug'magunim. Og'ir, muvotil taqdiriga berib, sira Murtoz bilan hayotimni bog'lamoqchi edim. Unga turmushga chiqsam isnoddan qutulaman, yaqinlarimning yuzini yerga qaratmayman, deb o'ylardim. Dunyoda hamma ayollar qiynalib-qiynalib uy qiladi. Men ham Murtozdan bir yo'lini topolmay yurgan yigitni yo'lga solsam, unga juft bo'lib ko'p qatori oila qursam, zuryod orttirsam armonlarim arib murodimga yetishimga ishonardim...

Bekmurod! Mening oddiygina turmush qurishga intilgan bir ayol sifatidagi so'nggi umidlarim ham chippakka chiqib tezda barham topdi. Murtozning qurilishda ishlayotgani-yu, pul to'playotgani, odam bo'lish uchun qilgan sa'y-harakatlari-yu, bergan va'dalari bir cho'pchak bo'lib chiqdi. Sotib olmoqchi bo'layotgan uyi suyuqoyoqlarni "mehmon"; qiladigan ishratxonagina ekan, xolos. Bir gal Murtoz o'sha uyda oldimga begona erkakni tashlab ketdi-yu, keyin boshqa ko'zimga ko'rinmadi.

Meni beshafqat, makkor taqdir asta-sekin sog'lom turmush tarzi bilan yonma-yon mavjud bo'lgan iflos kechirmishlar ummoniga g'arq eta boshladi. Shahvatparast erkaklardan, buzuqi ayollardan tanishlar orttirdim. Ularning beandisha, besharm dunyosiga kirib bordim. O'qishdan haydali, u yer-bu yerda kun kechirib yuradigan bo'ldim. Tog'u-toshda bir umr cho'ponlik qilib o'tayotgan avom otam, qishloqdan chiqmagan onam meni nazorat qilolmasdilar. Ular men haqidagi mish-mishlarni allaqachon eshitishib, noiloj to'ng'ich qizlaridan ko'ngil uzib, endi singillarimga umid bog'lab o'tirishganini sezardim. Qishloqdoshlarimdan bir nechtasi ota-onamning iltimosi bilan shaharda meni topishdiyaman, ammo ularga bo'yin egmadim, nasihatlariga quloq tutmadim.

Men shaharda fohishalar dunyosining tartib-qoidalariga bo'ysunib yashar, qo'shmachilar nazorati ostida "faoliyat"; yuritardim. Maxsus turar-joylarimiz, hatto maoshimiz ham bor edi. Yuragimning tubida bu jirkanch, behalovat hayotga nisbatan kuchli nafratimni asrab yurgan bo'lsam-da, undan voz kechishga chorasiz edim. Mening ham bir oila bekasi bo'lib umr kechirish haqidagi orzularim armonga aylanib bo'lganligidan azoblanardim.

Oylar, yillar, xullas, shoshma-shoshar vaqt har jabhada, xususan, fohishalar hayotida ham ma'lum xulosalar yasaydi, hukmlar chiqaradi. Yoshim o'ttizdan o'tib endi "buyurtmalar"; kam tushadigan bo'lib borayotgan kezlarda kun ko'rishim uchun qo'shmachilikni ham kasb tuta boshladim. Bu yo'lda menga bir keksa qo'shmachi ayol homiylik qilardi. U meni yoshlikda vafot etib ketgan qiziga o'xshatgani, uni eslatishim tufayli yaxshi ko'rар, yordamini ayamasdi. Shahar chekkarog'idagi eski uyini ham vaqtincha menga berib qo'ygandi.

Bir kuni... bir kuni bozorda sizni ko'rib qoldim. Xotiningiz va bolalaringiz ham bor edi. Narsalar xarid qilib yurardingiz. Sotuvchilarga luqma otib hazillashar, g'oyat xushchaqchaq edingiz. Yurgan yo'lingizda ochiq yuz bilan ko'krak kerib borardingiz. Ilgarigidek mag'rur, olifta edingiz. Toza ishda ishlashingiz, oilangiz borligidan mamnunligingiz, hayotda xotirjamligingiz shundoqqina sezilib, ko'rinib turardi.

Shunda mening qalbimda sizga bo'lgan nafratim yana qayta alangaladi. Hasadim qulf urdi. O'zimning shu kunlarga tushishimning, ikki dunyom xor bo'lishiB-ning asl sababchisini sizda ko'rdim. Ehtiroslarim meni o'rab yuragimda sizdan qachondir qasd olish niyati tug'ildi. Ko'p mulohaza qilib o'tirmay bozordagi tanishlarimdan biridan sizning manzilingizni bilib berishini so'radim. U iltimosimni rad etmay ketingizdan odam qo'ydi...

Bekmurod! Men tanishlarim orqali bir hafta ichida manzilingizdan tashqari oilangiz a'zolari, turmushingiz, o'zingizning o'tmishingiz, hozirgi ish joyingiz va ko'pgina boshqa narsalar to'g'risida bilib oldim. Hatto telefon raqamlaringizga ham ega bo'ldim. Endi nima qilishim mumkinligi haqida bosh qotirib yurgan chog'larda Shodining do'konida xotiningiz Irodani uchratdim...

Qolgan gaplar o'zingizga ayon. Ko'p vaqt o'tmay IrodaB-ning uvoli ikkalamizniyam tutdi deyishga asoslar yetarli. Avvaliga men bedavo kasallikka giriftor bo'ldim. Keyinchalik siz ham qamoqhonadan nogiron bo'lib qaytB-dingiz.

Shunga imon keltirdimki, hayotimizda qilgan xatolarimiz bir umr bizni ta'qibda ushlaydi. Kun kelib xun talab qiladi. Muqarrar jazoga tortadi. Yana oldinda qiyomatdagi jazosi-da kutib turibdi.

Men ham eski hovlida bir o'zim yashayman. Dardim siznikidan-da og'irroq. Haligi keksa ayol holimdan xabar olib turadi, yo odam jo'natadi. U bo'lmasa nima qilardim. Bilasizmi, yaqinda oldimga O'rol keldi. Qanday topsa topibdi. Uzoq vaqt suhbatlashdik. U ketgach yum-yum yig'lab oldim.

Bekmurod! So'ngi xat orqali uchrashguncha xayr! Sizga sabr-toqat tilayman. Salom bilan, Noila!..bTk

#### Quticha Va So'nggi Maktub

"Bekmurod! Men Sizga o'zimning manzilimni ma'lum qilolmayman. Bilaman, buning sizga keragiyam yo'q. Shunday bo'lsa-da aytib qo'yaqolay: men shu shahardayam, boshqasidayam yo'qman. Umuman, siz birinchi maktubimni olgan paytingizdayoq men bu olamda yo'q edim. Omonat dunyosini topshirish arafasida negadir haligacha asrab yurganim - quticha ichidagi mana bu munchoqni nima qilishimni bilmay qoldim. Buni o'zim bilan olib ketolmayman-ku, axir. Shuning uchun munchoqli qutichani Sizga yuborib qo'yaqoldim. Har qalay, uning yagona vorisi Siz bo'lsangiz kerak, deb o'yladim...";